

SHAXSIY MA'LUMOTLARNI QAYTA ISHLASHGA ROZILIK

Ushbu Rozilikni bildirish orqali, men erkin ravishda, o'z manfaatlarimni ko'zlab va o'z xohish-irodamni ifoda etgan holda, "ASIA ALLIANCE BANK" ATBga (bundan buyon "Bank" deb yuritiladi) hamda men (yoki mening manfaatlarimni ifodalovchi shaxs) bilan Bank o'rtasida tuzilgan (yoki kelajakda tuzilishi mumkin bo'lgan) har qanday bitim/operatsiyalarni tuzish va/yoki amalga oshirish va/yoki texnik xizmat ko'rsatishga aloqador bo'lgan yoki aloqador bo'lishi mumkin bo'lgan uchinchi shaxslarga quyidagilarni taqdim etaman:

mening elektron, qog'oz va boshqa moddiy manbalarda qayd etilgan shaxsiy va moliyaviy ma'lumotlarimni, shu jumladan fotosurat va video tasvirlarimni, davlat ma'lumotlar bazalaridan olingan ma'lumotlarni, shuningdek Bankning topshirig'iga binoan harakat qiluvchi uchinchi shaxslar ixtiyorida bo'lgan boshqa shaxsiy ma'lumotlarimni to'plash, yozib olish, qayta ishlash, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, o'zgartirish, to'ldirish, aniqlashtirish (yangilash yoki o'zgartirish), olish, foydalanish, uzatish (taqdim etish, kirish), shaxssizlantirish, blokirovka qilish, o'chirish va yo'q qilishga so'zsiz, xabardor qilingan va ongli ravishda roziligimni,

Bank tomonidan "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida nazarda tutilgan harakatlarni avtomatlashtirish vositalaridan foydalangan holda yoki bunday vositalarsiz amalga oshirish yo'li bilan,

Bank tomonidan men bilan Bank taklif qiladigan barcha turdagi bank xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha shartnomalar/ofertalar tuzish imkoniyatini ko'rib chiqish, u yoki bu bank xizmatlarini ko'rsatish uchun men bergan arizalarni ko'rib chiqish natijalari, Bank va uning hamkorlarining boshqa mahsulotlari va xizmatlari to'g'risida tegishli ma'lumotlarni men Bankka taqdim etgan aloqa ma'lumotlari orqali har qanday aloqa vositasi yordamida yuborish, shuningdek Bankning ma'lumotlar bazalarini to'ldirish maqsadida xabardor qilish.

Shuningdek, quyidagilarga rozilik beraman:

- men haqidagi shaxsiy ma'lumotlarni BDMAB/JBPT/DSQ va mobil aloqa operatorlari tizimidan olish;

- Bank tomonidan men haqidagi barcha mavjud ma'lumotlar va kredit mahsulotlari bo'yicha ma'lumotlarni meni identifikatsiya qilish, davlat va nodavlat idoralar va tashkilotlarda kreditga layoqatliligimni tegishli baholash uchun zarur bo'lgan hajmda, tartibda va shartlarda taqdim etish/olish, ulardan kredit hisobotini olish, "Garov reyestri" DUKga yozuvlarni kiritish/o'zgartirish/o'chirish;

- mol-mulk to'g'risidagi ma'lumotlarni olish: mening mol-mulkim va/yoki majburiyatlar bo'yicha ta'minot bo'lgan uchinchi shaxslarning mol-mulki to'g'risidagi ma'lumotlar, mol-mulkka nisbatan taqiqlar (xatlov) mavjudligi/mavjud emasligi to'g'risidagi ma'lumotlar; identifikatsiya ma'lumotlari, ro'yxatdan o'tkazish, taqiqlar mavjudligi/mavjud emasligi to'g'risidagi ma'lumotlar; mol-mulkning umumiy tavsiflari; qiymati; mol-mulkning manzili (joylashgan joyi), davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar va boshqa ma'lumotlar;

- to'lov qobiliyatimni baholash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni olish: pensiya ajratmalari, rasmiy va boshqa daromadlar va xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlar va boshqalar; kreditlar (qarzlar), bank hisobvaraqlari, pul mablag'lari va qimmatli qog'ozlar, shu jumladan ishonchli boshqaruvda va ishonchli saqlashda mavjudligi/mavjud emasligi to'g'risidagi ma'lumotlar, to'langan soliqlar va soliqlar bo'yicha qarzdorlik summasi to'g'risidagi ma'lumotlar;

- oilaviy/ijtimoiy ahvolim to'g'risida ma'lumot olish;

- tegishli sifatidagi xizmatlarni ko'rsatish va uni yaxshilash, ko'rsatilayotgan xizmatlarni shaxsiylashtirish, shu jumladan masofaviy xizmat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan axborotni olish;

- o'zaro hamkorlikning quyidagi usullaridan foydalanish: telefon orqali so'zlashuvlar, pochta jo'natmalari, SMS-xabarnomalar, matnli, ovozli va aloqa tarmoqlari orqali hamda Internet tarmog'idan foydalangan holda uzatiladigan boshqa xabarlar;

- yozma murojaat qilish va Bank tomonidan men taqdim etgan ro'yxatdan o'tish joyi, haqiqiy yashash joyi manzili va ish joyi manzili bo'yicha so'rovlar yuborish;

- Bankning ma'lumotlar bazasi operatorlari, Bank kontragentlari, uchinchi shaxslar bilan o'zaro hamkorligi uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Bankning ichki hujjatlari talablariga muvofiq Bankka zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlarni (shu jumladan, yuridik shaxslar kapitalidagi mening ishtirokim to'g'risidagi ma'lumotlar - ishtirok etish ulushi, aksiyalar soni (ulushi), egallab turgan lavozimlari, shuningdek, bunday ma'lumotlarga o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi ma'lumotlar, men vakili bo'lgan yuridik shaxslar ro'yxati) olish.

Shu bilan birga, men roziligimni bildiraman va Bankka ushbu Kelishuvning yuqorida ko'rsatilgan bandlarida ro'yxati keltirilgan ma'lumotlarni (shaxsiy ma'lumotlarni) to'liq yoki qisman maxfiylik va ma'lumotlarni oshkor qilmaslik to'g'risida bitim (shartnoma) tuzgan uchinchi tomonga qayta ishlash, shu jumladan uchinchi tomon tomonidan qayta ishlash uchun taqdim etishga vakolat beraman.

Men Bankka taqdim etayotgan barcha ma'lumotlarim to'liq va ishonchli ekanligini tasdiqlayman.

Ushbu rozilikni berish orqali, Bankning mobil ilovasida ro'yxatdan o'tishda boshqa shaxslarning (uchinchi shaxslar yoki xayoliy shaxslarning) shaxsiy ma'lumotlaridan foydalanib, ataylab noto'g'ri ma'lumot kiritmaslik majburiyatini olaman.

Shuningdek, Bank nazoratidan tashqarida bo'lgan dasturiy ta'minot, serverlar yoki kompyuter tarmoqlaridagi texnik nosozliklar tufayli foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlaridan nojo'ya foydalanish holatlari yuz bersa, Bank buning uchun javobgar emasligidan xabardorman va bunga roziman.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan shaxsiy ma'lumotlarni saqlash holatlari bundan mustasno, Bank tomonidan shaxsiy ma'lumotlarimdan foydalanishni to'xtatish uchun ushbu roziligimni yozma ravishda bekor qilish maqsadida Bankka murojaat qilishim zarurligini tushunaman va bunga roziman.

Ushbu rozilik uchinchi shaxslarga shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlashga haqiqatan rozilik berganimni tasdiqlovchi dalil sifatida taqdim etilishi mumkin.

Mazkur rozilik berilishi munosabati bilan Bank va uning hamkorlari/kontragentlaridan shaxsiy ma'lumotlarimni himoya qilish uchun quyidagilarni ta'minlovchi huquqiy, tashkiliy va texnik choralarni ko'rishlarini so'rayman:

- shaxsiy hayotimga aralashishdan himoyalaniish huquqlarimning amalga oshirilishini;
- shaxsiy va moliyaviy ma'lumotlarimning yaxlitligi hamda xavfsizligini ta'minlash;
- shaxsiy ma'lumotlarimning maxfiyligiga rioya qilish;
- shaxsiy ma'lumotlarimga noqonuniy ishlov berilishining oldini olish.

Ushbu rozilik men tomonimdan noma'lum muddatga berilgan bo'lib, uni qaytarib olgunga qadar amal qiladi.